



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: XXXX-XXXX

ORIENTAL JOURNAL OF ENGINEERING AND MODERN TECHNOLOGIES

SHARQ MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY
TEXNOLOGIYALAR JURNALI

Scientific Journal

- Civil
- Robotic
- Material
- Chemical
- Computer
- Electrical
- Mechanical
- Agricultural
- Manufacturing
- Qurilish
- Robototexnika
- Materialshunoslik
- Kimyo-texnologiya
- Informatika
- Elektr texnologiya
- Mexanika
- Qishloq xo'jaligi
- Ishlab chiqarish



xomidovanvarbek07@gmail.com
www.innoworld.net
+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ENGINEERING AND MODERN TECHNOLOGIES

Volume 2, Issue 2
2025

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX




Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Uzbekistan-2025



JADID MATBUOTI ORQALI JAMIYATDA MADANIY UYG'ONISH JARAYONI

Mahammadov Husniddin Tulkin o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Arxeologiya yo'nalishi talabasi

E-mail: xusniddinmahammadov71@gmail.com

Telefon raqami: +998(90)-845-08-03

Anotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida O'rta Osiyoda, xususan, Turkiston hududida jadidchilik harakatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan matbuot faoliyati va uning jamiyatdagi madaniy uyg'onish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Jadid matbuotining ma'rifatparvarlik g'oyalari, xalqni savodxonlikka, milliy o'zlikni anglashga chorlagan dasturlarining ijtimoiy ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, matbuot, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, islohot, "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston", "Shuhrat", madaniyat, ma'naviyat.

Kirish. XX asr boshlarida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati xalqni jaholat, savodsizlik va ijtimoiy turg'unlikdan chiqarish, milliy o'zlikni anglash va madaniy yuksalishga erishishni maqsad qilgan yirik ijtimoiy-siyosiy hodisa edi. Ushbu harakatning eng samarali vositalaridan biri jadid matbuoti bo'ldi. Matbuot orqaligina jadidlar xalq ongiga erkinlik, ilm-fan, ma'rifat va milliy birlik g'oyalarini singdira oldilar. Jadid gazeta va jurnallari – "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoi Turkiston", "Hurriyat", "Najot" kabi nashrlar nafaqat siyosiy yangiliklarni yoritdi, balki xalqni ma'naviy uyg'onishga da'vat etdi. Ular xalq orasida ilm-ma'rifatni yoyish, ijtimoiy adolat, vatanparvarlik va milliy o'zlikni tiklash g'oyalarini ilgari surdilar.

Jadid matbuoti o'z davrida yangicha tafakkur maktabini shakllantirdi. Gazeta va jurnallar orqali xalqni milliy mustaqillik, erkin fikrlash, madaniy islohotlarga chaqirish asosiy vazifa etib belgilandi. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ziyolilar o'z maqolalarida jamiyatni uyg'otish, yosh avlodni ilmiy, ma'rifatli etib tarbiyalash zaruratini ta'kidlab o'tganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jadid matbuoti va uning jamiyatdagi roli haqida ko'plab tarixchi va adabiyotshunos olimlar tadqiqot olib borganlar. Ular orasida A. Fitrat, A. Avloniy, M. Behbudiy kabi jadidlarning asarlari bevosita manba sifatida muhim ahamiyatga ega. Ularning asarlarida xalqni ilm-fan, ma'rifat, zamonaviy tafakkur sari undash, milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qilish asosiy o'rin egallagan.

Zamonaviy tadqiqotchilardan B. Qosimov, S. Mirzayev, H. Boltaboyev, A. Ergashevlarning ilmiy ishlarida jadid matbuotining o'zbek milliy uyg'onish davridagi o'rni keng yoritilgan. Xususan, B. Qosimov o'z tadqiqotlarida jadid

matbuotini milliy o'zlikni tiklash, xalq ongini o'zgartirish va ma'naviy mustaqillikka erishish yo'lidagi asosiy kuch sifatida talqin etadi.

S. Mirzayev esa o'z ishlarida jadid matbuotining ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini chuqur tahlil qilib, matbuotning jamiyat hayotiga kirib borish mexanizmlarini yoritadi. H. Boltaboyev esa jadidchilik harakati tarixiy bosqichlarini o'rganar ekan, matbuotni jadidchilik mafkurasining yetakchi targ'ibotchisi sifatida baholaydi. A. Qodiriy va Cho'lpon singari adiblar esa o'z maqolalarida jadid matbuotining xalqni fikrlashga, yangicha dunyoqarashga o'rgatishdagi o'rnini alohida ta'kidlaganlar. Ular matbuotni xalqni uyg'otuvchi, ijtimoiy adolat va erkinlik uchun kurashuvchi kuch deb bilganlar. Shuningdek, M. Jo'rayev, N. Karabaev, M. Hojiev kabi tadqiqotchilar jadid matbuotini o'zbek jurnalistikasi tarixidagi yangi bosqich sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, jadid matbuoti nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantirish va xalqni milliy birlik sari yetaklovchi omil bo'lgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida tarixiy-metodologik yondashuv, adabiyotshunoslik va manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va analiz, tahliliy yondashuv, interdisiplinar yondashuv usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Jadid matbuotining asosiy maqsadi xalqni ilm-fan, ma'rifat, milliy g'urur va zamonaviy tafakkurga yo'naltirish edi. Bu nashrlar orqali jadidlar xalqni jaholatdan chiqarish, millatni uyg'otish va jamiyatni yangi yo'nalishga – taraqqiyot sari yetaklashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Jadid gazeta va jurnallarida ta'lim va tarbiya masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Ular eski usuldagi maktablarni isloh qilish, zamonaviy fanlar – matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlarni o'qitish zarurligini ta'kidlab, yangi usuldagi maktablarni tashkil etishni targ'ib qilganlar. Bu bilan jadidlar xalqni ilmiy, dunyoqarashi keng, zamonaviy tafakkur egasi sifatida shakllantirishga intilganlar[1].

Matbuotda ayollar mavzusi ham keng yoritilgan bo'lib, ayollar savodsizligiga qarshi kurash, ularning jamiyatdagi o'rnini va huquqlarini himoya qilish masalalari ilgari surilgan. Bu o'z davri uchun nihoyatda jasoratli g'oya edi, chunki jadidlar jamiyatning taraqqiyoti ayollarning ma'rifatli bo'lishiga bog'liq, deb hisoblaganlar. Jadid nashrlarida ijtimoiy adolat, tenglik, milliy birlik g'oyalari ham keng o'rin olgan. Ular mustamlakachilik siyosatini tanqid qilib, xalqni o'z huquqlarini anglashga va milliy mustaqillik g'oyalari choralaganlar. Shuningdek, xalqni birlashtirish, o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashga da'vat etuvchi maqolalar ko'p chop etilgan.

Ilmiy-ma'rifiy islohotlar jadid matbuotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda dunyoda kechayotgan ilm-fan yutuqlari, texnika yangiliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Bu orqali jadidlar xalqni zamonaviy hayotga moslashishga, ilm va taraqqiyotdan orqada qolmaslikka chaqirganlar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy tahriridagi "Samarqand" gazetasi xalqni o'qishga, ilm o'rganishga va tafakkurini kengaytirishga da'vat qilgan. "Sadoi Turkiston" gazetasi esa Turkiston xalqlarining siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotiga oid

dolzarb masalalarni ko'tarib chiqqan, xalqni birlashishga, o'zligini anglashga undagan. Shuningdek, "Hurriyat", "Najot" va "Shuhrat" kabi nashrlar orqali jadid ziyolilari zamon bilan hamnafas bo'lish, yangi fikrlarni qabul qilish va millat manfaatlari yo'lida xizmat qilish g'oyalarini ilgari surganlar[2].

Umuman olganda, jadid matbuoti Turkiston jamiyatida madaniy uyg'onishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. U o'z davrida faqat xabar beruvchi emas, balki xalqni tarbiyalovchi, fikrlashga o'rgatuvchi, milliy o'zlikni shakllantiruvchi ma'naviy mayoq bo'lib xizmat qilgan.

Asosiy muammolar. Jadid matbuoti faoliyatida bir qator ijtimoiy, siyosiy va madaniy to'siqlar mavjud edi. Eng avvalo, Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati matbuot erkinligini keskin cheklab qo'ygan edi. Har bir gazeta va jurnal senzura nazoratidan o'tkazilgan, erkin fikr bildirish imkoniyati toraytirilgan. Jadidlar chop etgan ko'plab maqolalar hukumat tomonidan taqiqlangan yoki tahrir ostida chop etilgan. Natijada, jadid matbuoti o'z fikrini to'liq bayon etishda siyosiy bosimga duch kelgan. Bundan tashqari, moliyaviy imkoniyatlarning yetishmasligi jadid nashrlarining barqaror faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilgan. Gazetalar asosan ziyolilarning shaxsiy mablag'lari yoki obunachilarning oz miqdordagi to'lovlari hisobiga chop etilgan. Bu esa ularning uzoq muddatli faoliyat yuritishini qiyinlashtirgan. Aholining savodsizligi ham jadid matbuoti rivojiga jiddiy to'siq bo'lgan omillardan biri edi. O'sha davrda o'qish va yozishni biluvchi insonlar soni juda kam bo'lib, gazeta va jurnallarni keng ommaga yetkazish qiyin kechgan. Shu sababli, jadidlar matbuot orqali xalqni o'qishga, bilim olishga va o'z fikrini ifoda etishga o'rgatish zarurligini doimo targ'ib qilganlar[3].

Shuningdek, diniy konservativ doiralar, eski fikr tarafdorlari jadid matbuotining g'oyalariga qarshi chiqishgan. Ular jadidlarni "bid'atchi" yoki "dinga zid" deb atab, ularning ma'rifatparvarlik faoliyatiga to'sqinlik qilishgan. Bu holat jadidlarning ijtimoiy hayotdagi obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ularni o'z maqsadlaridan chekinishga majbur qila olmagan. Bularning barchasiga qaramay, jadid matbuoti o'z faoliyatini to'xtatmadi. U turli to'siqlar, senzura va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, xalqni uyg'otish, milliy ongini shakllantirish va madaniy yangilanishni targ'ib etishda davom etdi. Aynan shu qat'iyat tufayli jadid matbuoti Turkiston tarixida o'ziga xos ruhiy uyg'onish maktabini yaratishga muvaffaq bo'ldi[4].

Yechimlar va istiqboldagi yo'nalishlar. Bugungi kunda jadid matbuotining tajribasini chuqur o'rganish, uni zamonaviy ommaviy axborot vositalari faoliyatida qo'llash nihoyatda muhimdir. Jadidlar ilgari surgan ma'rifat, milliy uyg'onish, erkin fikrlash va xalq manfaatiga xizmat qilish g'oyalari hozirgi axborot asrida ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Zamonaviy jurnalistika jadid matbuotining xalqparvarlik, haqiqatparvarlik va milliy mas'uliyat tamoyillarini davom ettirishi lozim. Chunki jadidlar matbuotni xalqni tarbiyalovchi, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, milliy o'zlikni mustahkamlovchi vosita sifatida ko'rganlar.

Bugungi kunda ham OAV nafaqat xabar tarqatuvchi, balki jamiyatning ma'naviy yetakchisiga aylanishi zarur. Yosh avlodni jadidlarning boy ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishga, ularning millatparvarlik, erkin fikr va ma'rifatparvarlik ruhini anglashga o'rgatish – ma'naviy tarbiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu orqali yoshlar orasida vatanparvarlik, mas'uliyat va milliy g'urur tuyg'usini yanada kuchaytirish mumkin. Shuningdek, o'zbek matbuot tarixida jadid nashrlarini tahlil qilish orqali jurnalistika etikasi, axborot madaniyati va xalqparvarlik an'alarini tiklash zarur. Jadidlar faoliyatida kuzatilgan halollik, jasorat va xalq oldidagi mas'uliyat bugungi jurnalistlar uchun ham o'rnak bo'lishi kerak. Kelgusida jadid matbuotining merosini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy markazlar tashkil etish, ularning asarlarini raqamlashtirish va keng jamoatchilikka yetkazish istiqboldagi muhim yo'nalishlardan biridir. Shuningdek, jadidlarning ijtimoiy g'oyalari asosida zamonaviy ta'lim, madaniyat va ommaviy axborot tizimlarida yangi dasturlar ishlab chiqish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Jadid matbuoti o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onishida beqiyos o'rin tutgan. U xalqni jaholat, savodsizlik va ijtimoiy turg'unlikdan chiqarish, ilm-fan, ma'rifat va milliy g'urur sari yetaklash vazifasini bajargan. Jadid gazetalar va jurnallar orqali jamiyatni yangilanish, taraqqiyot va erkin tafakkur sari undash, milliy o'zlikni anglash va mustahkamlash g'oyalarini ilgari surgan. Jadid matbuoti nafaqat xabar beruvchi vosita, balki xalqni tarbiyalovchi, ilmiy va zamonaviy tafakkurli shaxslar yetishtiruvchi muhim vosita bo'lgan. U o'z davrida xalqni milliy va madaniy uyg'onishga chorlagan, ijtimoiy adolat, tenglik va erkinlik g'oyalarini targ'ib qilgan. Bugungi kunda esa jadidlarning merosi yosh avlod uchun ibrat manbai bo'lib, ularni vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jadid matbuoti tarixiy tajribasi zamonaviy OAV va ta'lim tizimida ham qo'llanilishi mumkin. Bu orqali jurnalistika etikasi, axborot madaniyati va xalqparvarlik an'analari yangidan tiklanadi.

Takliflar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Jadid matbuoti va uning tarixiy merosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Jadid gazetalar va jurnallarining elektron arxivlarini yaratish va keng jamoatchilikka taqdim etish. Yoshlar orasida jadid merosini targ'ib qilish uchun seminarlar, ma'ruza va tanlovlar tashkil etish. Zamonaviy matbuotda jadidlarning xalqparvarlik, ma'naviy uyg'onish va ilmga intilish g'oyalarini qo'llash. Umuman olganda, jadid matbuoti o'z davrida xalqni uyg'otgan, bugungi kunda esa milliy o'zlik, ma'naviy yangilanish va erkin tafakkur timsoliga aylangan tarixiy hodisadir. Uni o'rganish va davom ettirish bugungi avlod uchun muhim ma'naviy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. Jadidchilik va o'zbek milliy uyg'onish harakati. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Mirzayev S. Jadidlar matbuoti tarixidan. – Toshkent: Ma'naviyat 2018.
3. Ergashev A. XX asr boshlarida Turkiston matbuoti. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2017.

